

Fuqaro muxofazasi institutidagi amaliyot

2020 yil 26 fevral kuni "Hayot faoliyati xavfsizligi" kafedrasida dotsentlari B.B.Utepov va N.Q.Rajabovlar tomonidan "Gidromeliorativ ishlarni mexanizatsiyalash" fakulteti "Hayot faoliyati xavfsizligi" yo'nalishi 3-bosqich 309-guruh talabalarining institutda olgan nazariy bilimlarini mustaxkamlash maqsadida Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Fuqaro muxofazasi institutiga amaliy ko'nikmalarini shakllantirish maqsadida amaliyotga olib bordilar. Fuqaro muxofazasi instituti tomonidan birlashtirilgan xodim guruh talabalariga aloxida mashg'ulotlar o'tildi.



Talabalar institutda tashkil etilgan muzeyda bo'ldilar va u yerdagi mavjud bo'lgan eksponatlar bilan yaqindan tanishdilar. Ekspozitsiya markazida talabalar binolarning zilzila bardoshligi haqida ma'lumotlarga ega bo'ldilar va evakuatsiya haqida ma'lumotlarga ega bo'ldilar, jabrlanganlarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish va guruh talabalarini simulyatsiya markazida yig'ildilar va 8-9 ballik zilzila sodir bo'lsa qanday xarakter qilish bo'yicha ko'nikmalarini oshirdilar. Fuqaro muxofazasida o'tkazilgan mashg'ulotlar talabalarga qiziqarli va esda qolarli bo'ldi. "Hayot faoliyati xavfsizligi" kafedrasida xodimlari va talabalar tomonidan Institut rahbariyatiga ham o'z minnotdorchiligimizni bildiramiz.



TIQXMMI matbuot xizmati